

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI
TURIZM KAFEDRASI

I.Matkarimov, A.Raximboyev
TURIZMDA INNOVATSION FAOLIYAT
(O'quv-uslubiy qo'llanma)



URGANCH – 2018

MAS'UL MUHARRIR:

D.Xudayberganov, Urganch Davlat universiteti “Turizm” kafedrası mudiri,
dotsent.

TAQRIZCHILAR:

1. **U.Matyaqubov**, Urganch Davlat universiteti “Turizm” kafedrası dotsenti,
i.f.n.
2. **Sh.Ro'zmetov**, Urganch Davlat universiteti “Iqtisodiyot” kafedrası mudiri,
i.f.n.

Urganch Davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 20__ yilda ____
_____dagi – sonli qaroriga muvofiq nashrga tavsiya qilingan. 21 b.

KIRISH

Hozirgi vaqtda innovatsion jarayonlarning o'sishi ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi va transformatsiyalashuvining zaruriy elementi hamda raqobat ustunligini ta'minlovchi asosiy resurs sifatida qaralmoqda. Chunki, O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarni erkinlashtirish yo'lida ulkan qadamlar qo'ydi. Iqtisodiyotda amalga oshirilgan va erishilgan natijalar negizida tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish va uni modernizatsiya qilishning puxta o'ylangan modeli va uzoq muddatga mo'ljallangan dasturlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan tizimli, izchil va qat'iy harakatlar turdi. Ushbu harakatlarni amalga oshirish uchun aniq chora-tadbirlar belgilab olindi.

Bevosita keltirilgan ushbu yo'nalishlar innovatsiya jarayonlari asosida amalga oshirilib, bu jarayonlarning o'sishi bugungi kunda ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanishi va transformatsiyalashuvining zaruriy unsuri hamda raqobat ustunligini ta'minlovchi asosiy resurs sifatida qaralmoqda. Bu borada xalqaro tajribalarni tahlil qilish natijasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston hozirda qisqa muddatlar ichida ichki va xalqaro bozor uchun raqobatbardosh vositalar yaratish imkoniga ega bo'lgan yuqori ilmiy-texnik salohiyatli, istiqbolli sohalarni yaratish va faoliyatini amalga oshirish bosqichida turadi. Buning natijasida milliy innovatsion tizim rivojlanishi hamda uni jahon ilmiy-texnik tizimiga integratsiyasi ko'rinadi. Bu esa mamlakatimizni iqtisodiy rivojlanishini yangi innovatsion modeliga o'tishining ta'minlashiga muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Turistik korxonalarining turizm bilan bog'liq faoliyatining turli sohalaridagi yangi texnologik o'zgarishlarga o'z vaqtida e'tibor qaratishi, ishlashning yangi uslublarini yaratish va faoliyat natijalarini takomillashtirishga qodirligi korxonalar yashab qolishining zaruriy sharti, deb tan olinadi. Shu boisdan ham, turistik korxonalarda innovatsiyalarni joriy etish zarurati raqobat kurashi hamda bozorning boshqa bir qator talablarni rag'batlantiradi. Ko'rinib turibdiki, innovatsiyadan to'g'ri foydalanish uchun hozirgacha o'z yechimini kutayotgan nazariy va amaliy ahamiyatga molik bo'lgan yirik muammolar mavjud. Chunki, bugungi kunda, kelajak

istiqbolida iqtisodiy o'sish va mamlakat raqobatbardoshligini ta'minlashning asosini innovatsion omillar tashkil qiladi.¹ Natijada, turizm sohasining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlash asosiy maqsad qilib olinadi.

Darhaqiqat, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida zamonaviy mutaxassis xizmat ko'rsatish sohasida ishlashida innovatsion jarayonlar natijalaridan foydalanmasdan, o'z faoliyatini davom qildir olmaydi. Chunki, ilmiy-texnik axborotlar oqimi tez sur'atlar bilan o'sibmoqda. Ushbu sharoitda yosh mutaxassis ilmiy axborotlardan texnik yangiliklar va innovatsion g'oyalarni tanlab oladigan bo'lishi kerak.

Shuningdek, turistik korxonalarining turizm bilan bog'liq faoliyatining turli sohalaridagi yangi texnologik o'zgarishlarga o'z vaqtida e'tibor qaratishi, ishlashning yangi uslublarini yaratish va faoliyat natijalarini takomillashtirishga qodirligi korxonalar yashab qolishining zaruriy sharti deb tan olingan. Innovatsiyalarni joriy etish zarurati raqobat kurashi hamda bozorning boshqa bir qator talablarini ham rag'batlantiradi. Ulardan foydalanish mumkinligi, shuningdek, iste'molchilik talablari va iste'molchilar istaklari, zamonaviy kishi ruhiyatining o'zgarishlari sababli, demografik, iqtisodiy va ijtimoiy tartib o'zgarishi bilan ham bog'liqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, hozirgi kunda zamonaviy mutaxassis xizmat ko'rsatish sohasida ishlashida innovatsion jarayonlar natijalaridan foydalanmasdan, o'z faoliyatini davom qildir olmaydi, chunki ilmiy-texnik axborotlar oqimi tez sur'atlar bilan o'smoqda, bu sharoitda yosh mutaxassis ilmiy axborotlardan texnik yangiliklar va innovatsion g'oyalarni tanlab oladigan bo'lishi kerak, bunday qobiliyat ilmiy-tadqiqot hamda ijodiy ko'nikmalarsiz bo'lmaydi. Buning uchun zamonaviy mutaxassis bo'lgan talabalar "Turizmدا innovatsion faoliyat" fanini chuqur o'rganishlari talab qilinadi. Shu maqsadni amalga oshirish uchun ham mazkur fandan o'quv-uslubiy qo'llanma tayyorlandi.

¹ Pardayev M.Q., Mamasoatov T.X., Pardayev O.M. Modernizatsiya, diversifikatsiya va innovatsiya – iqtisodiy o'sishning muhim omillari. – T.: Navro'z, 2014. – 39 b.

ASOSIY QISM.

1-mavzu «TURIZMDA INNOVATSION FAOLIYAT» FANIGA KIRISH

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashg'ulot vaqti - 2 soat	Talabalar soni: 30–40 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborotli ma'ruza
Ma'ruza izohi	<p>Turistik korxonalarining turizm bilan bog'liq faoliyatining turli sohalaridagi yangi texnologik o'zgarishlarga o'z vaqtida e'tibor qaratishi, ishlashning yangi uslublarini yaratishga va faoliyat natijalarini takomillashtirishga qodirligi korxonalar yashab qolishining zaruriy sharti deb tan olingan. Innovatsiyalarni joriy etish zarurati raqobat kurashi hamda bozorning boshqa bir qator talablarini ham rag'batlantiradi. Ularadan foydalanish mumkinligi, shuningdek, iste'molchilik talablari va iste'molchilar istaklari, zamonaviy kishi ruhiyatining o'zgarishlari sababli, demografik, iqtisodiy va ijtimoiy tartib o'zgarishi bilan ham bog'liqdir. Shu tufayli, hozirgi paytda xizmat ko'rsatish tarmog'ining zamonaviy turlaridan biri bo'lgan turizm sohasini innovatsion jihatdan rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.</p>
O'quv mashg'ulotining maqsadi: «Turizmدا innovatsion faoliyat» faniga kirish haqida tasavvurlar hosil qilish	
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:
<ul style="list-style-type: none"> • o'quv kursining maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida tushuncha berish; • kursning mazmunini tushuntirib berish; 	<ul style="list-style-type: none"> • o'quv kursining maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida tushuncha bera oladilar; • kursning mazmunini tushuntirib bera oladilar;
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, namoyish etish, "Blis-so'rov" usuli.
Ta'lim berish shakllari	Jamoaviy, guruhlar.
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, vijn, kompyuter, intereaktiv doska.
Ta'lim berish sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob

1.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish	Faoliyat mazmuni
------------	-------------------------